

XITOIY TILIDA 助(zhù) IYEROGʻLIFI QATNASHGAN IBORALAR TAHLILI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-26-779-785>

Sodirova Aziza Mirkomol qizi

TDSHU, Magistratura lingvistika 1-bosqich

+998930050938

azizasodirova2002@gmail.com

Ilmiy rahbar: prof. **Akramjon Abilevich Karimov**

Annotatsiya: Mazkur maqolada xitoy tilidagi iboralar, ularning kelib chiqish tarixi va manbaalari haqida ma'lumot berilib, undan tashqari aynan 助zhu iyeroglifi qatnashgan bir qancha iboralar misol sifatida beriladi. Keltirilgan iboralar semantik va tuzilish jihatidan tahlil qilinadi. Xitoy tili uzoq yillik tarixga ega eng qadimiy tillardan biri bo'lib, bu uning lug'at boyligida iboralar ham talaygina ekanligidan dalolat beradi. Hammamizga ma'lumki, xitoy xalqidek iboralardan ko'p foydalanuvchi xalq bo'lmasa kerak. Bu ham o'z navbatida nutqning yorqin va ta'sirli bo'lishiga yordam beradi. Xitoy tilidagi iboralar tizimi o'ziga xosligi, qadimiyligi bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Ushbu maqolada tanlab olingan 助 iyeroglifi boshqalarga yordam berish, ko'maklashish ma'nolarini bildirib, xitoy tilida bu iyeroglif qatnashgan talaygina iboralar mavjud. Ushbu maqola o'z navbatida xitoy tilini o'rganuvchi yoshlar va tishunoslar uchun foydali manba bo'lib xizmat qila oladi.

Kalit so'zlar: ibora, xitoy tilining o'ziga xosligi, yordam, ta'rif, qadriyat, ezigulik.

Аннотация: В данной статье представлена информация о китайских выражениях, их истории и источниках, а также приведены примеры некоторых выражений, включающих в себя иероглиф жужжу. Приведенные выражения анализируются с точки зрения семантики и структуры. Китайский язык – один из древнейших языков с многовековой историей, о чем свидетельствует обилие выражений в его словарном запасе. Как мы все знаем, вероятно, ни одна нация не использует выражения так часто, как китайцы. Это, в свою очередь, помогает речи быть яркой и эффективной. Система выражений в китайском языке отличается от других языков своей уникальностью и древностью. Иероглиф чжу, выбранный в этой статье, означает помощь другим, и в китайском языке существует множество выражений с этим иероглифом. Эта статья, в свою очередь, может

послужить полезным ресурсом для молодых изучающих китайский язык и ученых.

Ключевые слова: идиома, уникальность китайского языка, помощь, определение, ценность, добро.

Annotation: This article provides information about Chinese expressions, their history and sources, and also gives examples of some expressions that include the zhùzhu hieroglyph. The quoted expressions are analyzed in terms of semantics and structure. The Chinese language is one of the oldest languages with a long history, which is evidenced by the abundance of expressions in its vocabulary. As we all know, there is probably no nation that uses expressions as much as the Chinese people. This, in turn, helps the speech to be bright and effective. The system of expressions in the Chinese language differs from other languages by its uniqueness and antiquity. The zhù hieroglyph selected in this article means to help others, and there are many expressions in the Chinese language with this hieroglyph. This article, in turn, can serve as a useful resource for young Chinese language learners and scholars.

Key words: idiom, uniqueness of Chinese language, help, definition, value, goodness.

Frazeologizmlar, asosan millatning urf-odatlarini, an'analarini o'zida aks ettiradi. Frazeologik birliklar mavjud bo'lmagan birorta til ham yo'q. Frazeologik birliklar ma'lum bir tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy til boyligini aks ettiradi va ularning dunyoqarashining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga yordam beradi. Har bir tildagi frazeologizmlarni o'rganish muhim hamda qiziqarli hisoblanadi.

Frazeologiya-tilshunoslikning shunday bir bo'limiki, boshqa bo'limlardan nutqqa tayyor holda kirib kelishi, leksik va semantik jihatdan o'zaro mos kelmasligi, ma'no jihatdan turg'unligi bilan farq qiladi. Uning asosiy muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shunga qarab frazeologizmlarni aniqlashdir.

Frazeologiya tilshunoslikning murakkab sohalaridan biri hisoblanib, u tilshunoslikning bir qator bo'limlari bilan, jumladan, leksikologiya, stilistika, semantika, etimologiya, morfologiya, grammatika bilan bevosita bog'liqdir.¹

¹https://www.google.com/search?q=O%E2%80%98tilida+frazelogiya+masalalarining+tadqiqiga+doir&oeq=O%E2%80%98tilida+frazelogiya+masalalarining+tadqiqiga+doir&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUyBggAEEUYOTIHCAEQIRigATIHCALQIRigAdIBBzcwOWowajeoAgiwAgHxBW45B_ePHIA18QVUOQf3jx5QNNQ&sourceid=chrome&ie=UTF-8

Iboralarga shu vaqtga qadar turli olimlar turlicha ta'rif berib kelishgan. Shuning uchun iboralarning o'ndan ortiq ta'riflari bor. Umuman olganda, ba'zi olimlar iboralarga, asosan, lug'aviy jihatidan kelib chiqib, ta'rif berishadi, masalan, "Iboralar tayyor so'zlar" kabi, lekin boshqa ko'pchilik olimlar bir nechta standartlardan foydalanadi. Qabul qilingan standartlarga quyidagilar kiradi: tuzilish jihatdan turg'unlik, ma'noviy jihatdan bir butunlik, kitobiy tilga xoslik, to'rt iyeroglifdan iboratlik va boshqalar. Quyida ko'proq uchraydigan ta'riflar:

Iboralar - odamlar uzoq vaqtdan beri ishlatib kelgan, ixcham turg'un birikmalar yoki qisqa jumlar. Xitoy tilidagi iboralarning asosiy qismi to'rtta iyeroglifdan iborat va odatda kelib chiqish hikoyasi bor. Ayrim iboralarni so'zma-so'z tushunish qiyin emas, masalan, 小题大做 "Pashshadan fil yasash", 后来居上 "Keyin kelganlar avvalgilardan o'zib ketishi" va hokazo. Ba'zi iboralarning ma'nosini tushunish uchun esa ularning kelib chiqish tarixini yoki unga tegishli iqtiboslarni bilish talab qilinadi, masalan, 朝三暮四, 杯弓蛇影 va boshqalar.²

Iboralar odamlar uzoq vaqt davomida ishlatib kelayotgan, to'liq ma'noli, barqaror tuzilmaga ega, ixcham shaklli va umumiy qo'llanishi bilan qoliplashgan qisqajumlardir.³

Xitoy tili qadimiy va murakkab til bo'lib, unda ko'plab iboralar mavjud. Har bir iyeroglif o'ziga xos ma'no va semantik qimmatga ega bo'lib, tilning mazmun va strukturasi shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada "助" (zhù) iyeroglifi qatnashgan iboralar semantik tahlili amalga oshiriladi. "助" so'zi, asosan, yordam berish, ko'maklashish ma'nosini bildiradi va ko'plab birikmalarda qatnashadi. Maqolaning maqsadi – bu iyeroglif ishtirokidagi iboralarni topish, bir qanchasini misol sifatida tanlab olish va ularni semantik va tuzilish jihatidan tahlil qilishdir.

1. 助 iyeroglifining ma'nosi va semantik xususiyatlari

"助" iyeroglifi Xitoy tilida "yordam berish", "ko'maklashish" degan ma'noni anglatadi. U ko'pincha fe'l sifatida ishlatiladi, biroq ba'zi iboralarda uning ma'nosi yanada kengayib, turli vazifalarni bajaradi. Semantik jihatdan "助" ko'maklashish jarayonini, qo'llab-quvvatlashni ifodalaydi.

Yordam berish: Asosiy ma'nosi ko'mak berish va yordam ko'rsatish.

Qo'llab-quvvatlash: Bu ma'no ko'proq qiyin vaziyatda yordam berish, qo'llab-quvvatlash jarayonini anglatadi.

Tashkiliy yordam: Ba'zi birikmalarda "助" tizimli, rasmiy yordamni bildiradi.

² 《现代汉语词典》，北京：商务印书馆，2012年，第166页

³ 《新编现代汉语》，上海：复旦大学出版社，2006年，第255页

- 他总是乐于助人，大家都很喜欢他。

•Tā zǒng shì lè yú zhù rén, dàjiā dōu hěn xǐhuān tā.

U har doim boshqalarga yordam berishni yoqtiradi, hamma uni juda yaxshi ko‘radi.

- 这台机器可以帮助我们提高工作效率。

•Zhè tái jīqì kěyǐ bāngzhù wǒmen tígāo gōngzuò xiàolǜ.

Bu mashina bizga ish unumdorligini oshirishga yordam beradi.

- 在困难的时候，朋友的帮助非常重要。

•Zài kùnnán de shíhòu, péngyǒu de bāngzhù fēicháng zhòngyào.

Qiyin paytlarda do‘stlarning yordami juda muhim.

- 学校设立了助学金，帮助贫困学生完成学业。

•Xuéxiào shèlì le zhùxuéjīn, bāngzhù pínkùn xuéshēng wánchéng xuéyè.

Maktab kambag‘al talabalar o‘qishni tugatishini qo‘llab-quvvatlash uchun yordam puli tashkil etdi.

2. 助 qatnashgan asosiy birikmalar va ularning semantik tahlili

Quyida “助” iyeroglifi ishtirokidagi keng tarqalgan birikmalar va ularning semantik tahlili keltiriladi:

- 助手 (zhùshǒu)

Lug‘aviy ma’no: yordamchi.

Semantik xususiyatlari: Bu so‘z yordam beruvchi shaxsni bildiradi. Semantik jihatdan “助” yordam berish jarayonini, “手” esa inson faoliyatini ifodalaydi. Umumiy ma’nosi – yordam beruvchi qo‘l, ya’ni qo‘shimcha kuch.

- 帮助 (bāngzhù)

Lug‘aviy ma’no: yordam berish.

Semantik tahlil: Bu so‘z ikki iyeroglifdan tashkil topgan bo‘lib, “帮” yordam berish, qo‘llab-quvvatlash ma’nosini bildiradi, “助” esa ko‘maklashishni anglatadi. Birgalikda ular yordam jarayonining kuchaytirilgan ifodasidir.

- 支助 (zhīzhù)

Lug‘aviy ma’no: moddiy yoki ma’naviy yordam ko‘rsatish.

Semantik xususiyatlari: Bu esa ko‘proq rasmiy yoki huquqiy matnda ishlatiladi. “支” – qo‘llab-quvvatlash, “助” esa yordam berishni anglatadi.

- 救助 (jiùzhù)

Lug‘aviy ma’no: qutqarish, yordam berish.

Semantik tahlil: Bu soʻz favqulodda vaziyatlarda yordam koʻrsatishni bildiradi. “救” – qutqarish, saqlash, “助” esa koʻmaklashishni bildiradi.

Quyida xitoy tilida yordam maʼnosini ifodalovchi bir qancha iboralarni xitoycha tavsifi bilan birgalikda koʻrib chiqamiz.

乐于助人 [lè yú zhù rén] 很乐意帮助别人。

守望相助 [shǒu wàng xiāng zhù] 守望:防守了望。为了对付来犯的敌人或意外的灾祸,邻近各村落互相警戒,互相援助。

Ehtiyotkor boʻling va bir-biringizga yordam bering. Bosqinchi dushmanlar yoki kutilmagan ofatlarga qarshi turish uchun qoʻshni qishloqlar bir-birlaridan qoʻrqib, yordam berish.

助人为乐 [zhù rén wéi lè] 帮助别人就是快乐。

Boshqalarga yordam berish baxt keltiradi.

拔刀相助 [bá dāo xiāng zhù] 拔出刀来,帮助被欺侮的人。形容见义勇为,打抱不平。

Adolatsizlikka duch kelganda, haqoratlangan tomonga yordam berish.

解囊相助 [jiě náng xiāng zhù] 囊:口袋。拿出财物帮助别人。用来形容慷慨助人。也作“解囊乐助”。

Boshqalarga yordam berish uchun pul va mulk bering.

“助” (zhù) – bu xitoy tilida “yordam bermoq, koʻmaklashmoq” degan maʼnoni bildiradi, lekin u ishtirok etgan iboralar doimo ijobiy maʼnoga ega emas — u yaxshi niyatda shu bilan birga yomonlik niyatida, yominlarga yordam maʼnosida ham boʻlishi mumkin.

Quyida “助” ishtirokidagi yaxshi maʼnoli iboralar:

Xitoy tilida	Pinyin - transkripsiya	Tarjima
互帮互助	hù bāng hù zhù	Bir-biriga yordam berish
伸出援助之手	shēn chū yuán zhù zhī shǒu	Yordam qoʻlini choʻzmoq
助人为善	zhù rén wéi shàn	Odamlarga yaxshilik qilish
乐于助人	lè yú zhù rén	Boshqalarga yordam berishdan xursand boʻlish

人		
守望相助	shǒu wàng xiāng zhù	Ehtiyotkor bo‘ling va bir-biriga yordam berish
拔刀相助	bá dāo xiāng zhù	Adolatsizlikka qarshi kurashish
助我张目	zhù wǒ zhāng mù	Ko‘zni ochishga yordam bermoq, niyatni amalga oshirishga yordam bermoq
相辅相成	xiāng fǔ xiāng chéng	Bir-biriga yordam qilib mukammallikka erishmoq

Quyidagilar salbiy ma’noli bo‘lsa-da, “助” iyeroglifi ishlatigan:

Xitoy tilida	Pinyin - transkripsiya	Tarjima
助人下石	zhù rén xià shí	Yiqilgan odamga yana tosh otmoq (ya’ni, qiynalayotgan odamga yordam o‘rniga zarar yetkazmoq)
助桀为恶	zhù Jié wéi è	Zolimga yordam berib, yovuzlik qilmoq
助纣为虐	zhù Zhòu wéi nüè	Zolim hukmdorga yordam berib, yovuzlik qilmoq
助桀为虐	zhù Jié wéi nüè	Zolimga yordam berib zulm qilmoq

“助” (zhù) qatnashgan iboralarda har doim “yordam” g‘oyasi bor, lekin bu yordam kimga va nima uchun qilinganiga qarab yaxshi yoki yomon bo‘ladi. Yaxshi ma’noli iboralarda odatda odamlar, jamiyat yoki yaxshi ishlar uchun yordam haqida so‘z yuritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 《现代汉语词典》，北京：商务印书馆，2012年。
2. 《新编现代汉语》，上海：复旦大学出版社，2006年。
3. 何平《汉语成语词典 双色版》，电子科技大学出版社，2004年。
4. 成语 - 维基百科，自由的百科全书
5. 中华成语大全，看完让你出口成章_手机新浪网
6. 大 БКРС

7. https://www.google.com/search?q=O%E2%80%98zbek+tilida+frazologiya+masalalarining+tadqiqiga+doir&oq=O%E2%80%98zbek+tilida+frazologiya+masalalarining+tadqiqiga+doir&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUyBggAEEUYOTIHCAEQIRigATIHCAlQIRigATIHCAmQIRigAdIBBzcwOWowajeoAgiwAgHxBW45B_ePHIA18QVuOQf3jx5QNQ&sourceid=chrome&ie=UTF-8

8. <https://cy.chacd.com/jl-tou-3019/>

9. 助人为乐类型的成语 - 百度文库

10. Мавлянова, У. Х. "ОСОБЕННОСТИ РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТОВ С ЧИСЛОВЫМИ КОМПОНЕНТАМИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.21 (2023): 130-134.

11. Sultanova, Lola Akmalovna. "Role Of Phonetic Borrowing In The Formation Of Medical Terms In The Chinese Language."

12. Каримов, Акрамджан. "Некоторые теоретические аспекты образования терминов китайского языка." *Востоковедения* 1.1 (2015): 14-23.

13. Karimov, Akramdjan Abilevich. "A General Question about Sentence Classification in Chinese." (2023).

14. Назарова, Сайёра Анваровна, and Акрам Абильевич Каримов. "ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ КИТАЕВЕДЕНИЯ: НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КАФЕДРЫ КИТАЙСКОЙ ФИЛОЛОГИИ ТГУВ." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.Special Issue 26 (2022): 156-162.